

Ravshanova Feruzabonu
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti
Pedagogika yoʻnalishi talabasi

INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI IJTIMOIY ONGNI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilim berish sifatini oshirish, balki o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirishda ham muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy ong tushunchasining pedagogik mazmuni, uning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining bu jarayondagi o'rnini tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mas'uliyat, hamkorlik va jamiyatga daxldorlik hissini rivojlantirishda raqamli platformalar, interaktiv metodlar, virtual muhitlar va media texnologiyalarning ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada nazariy yondashuvlar bilan birga, amaliy tajribalarga ham tayanilgan bo'lib, innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy ongga ta'siri misollar orqali yoritilgan. Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda olib borilayotgan pedagogik faoliyatni yanada takomillashtirish, shuningdek, ta'lim orqali ongli jamiyatni shakllantirish imkonini ochib beradi.

Kalit soʻzlar: innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, ijtimoiy ong, pedagogika, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, raqamli platformalar, virtual muhit, interaktiv metodlar, ijtimoiy mas'uliyat, ongli jamiyat, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, kompetensiya, ta'lim strategiyalari.

Ravshanova Feruzabonu
Student of the Faculty of Pedagogy

FORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS THROUGH INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES: THEORY AND PRACTICE

Abstract: Today, the use of innovative technologies in the educational process is regarded not only as a means of improving the quality of instruction but also as an important tool for shaping students' social consciousness. This article analyzes the pedagogical meaning of the concept of social consciousness, its developmental stages, and the role of modern educational technologies in this process. The author highlights the impact of digital platforms, interactive methods, virtual environments, and media technologies on fostering critical thinking, responsibility, collaboration, and a sense of social belonging in today's students. The article is based not only on theoretical approaches but also on practical experiences, illustrating the influence of innovative technologies on social consciousness through concrete examples. The results of the study open up opportunities to further improve pedagogical efforts in this area and contribute to the formation of a conscious society through education.

Keywords: innovative technologies, educational process, social consciousness, pedagogy, critical thinking, media literacy, digital platforms, virtual environment, interactive methods, social responsibility, conscious society, information technologies, modern education, competence, educational strategies.

KIRISH

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida inson kapitalini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda ta'lim tizimining roli beqiyosdir. Zero, zamonaviy ta'lim nafaqat bilim va ko'nikma berish, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, axborotga

tanqidiy yondashuv, mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-ma'naviy ko'nikmalarni singdirish vazifasini ham bajaradi. Bu esa ta'limga yangicha yondashuv, ya'ni innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlari ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari deganda faqat zamonaviy qurilmalar yoki raqamli platformalarni emas, balki pedagogik jarayonni interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan, ijodiy va mustaqil fikrlashga undovchi metodlar majmuasini tushunamiz. Masalan, raqamli resurslar, virtual laboratoriyalar, media kontent, axborot-kommunikatsiya vositalari o'quvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish, ularni ijtimoiy muhitdagi voqea-hodisalarga nisbatan faol pozitsiyada bo'lishga undashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu texnologiyalar orqali o'quvchilar orasida hamkorlik, empatiya, ijtimoiy mas'uliyat, ochiq muloqot kabi ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin.

Maqolada innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy ong shakllanishidagi o'rni ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, amaliy tajribalar, xalqaro tajribalar va milliy ta'lim tizimidagi yechimlar orqali ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari orqali pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali ijtimoiy ongni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu masala bo'yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar nafaqat bilim berish jarayonini takomillashtirish, balki o'quvchilarda ijtimoiy tafakkur, mas'uliyat, hamkorlik va faol fuqarolik ongini shakllantirishda ham samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonlik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalar o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirishda, ularning

ijtimoiy faoliyatga tayyorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Farg‘ona davlat universiteti professori Bahodirjon Shermuhammadov va ilmiy xodim Odiljon Raxmatov o‘zlarining maqolasida raqamli ta’lim muhitining o‘qituvchilar va o‘quvchilar axborot madaniyatini shakllantirishdagi rolga e’tibor qaratadilar. Ular ta’limda texnologik vositalardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning ijtimoiy bilim darajasi va ongini mustahkamlashini ta’kidlaydilar[1].

Shuningdek, Farg‘ona universiteti dotsenti Mo‘llayev Baxtiyor Mashrabovich tomonidan ilgari surilgan qarashlarda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlarining o‘quvchi shaxsini mustahkamlashda, ularning o‘z fikrini ifoda etish va ijtimoiy jarayonlarga faol kirishishida muhim omil ekani ko‘rsatilgan[2].

Farg‘ona Davlat Universiteti doktorantlari Axmedov Akmaljon va Sherqo‘ziyeva Zarnigor esa interaktiv texnologiyalar, virtual sinflar va raqamli vositalar o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini empirik asosda isbotlashgan[3].

Xalqaro tajribalarda ham bu boradagi izlanishlar kengaymoqda. Mohammad Awedh rahbarligidagi tadqiqotchilar Socrative platformasidan foydalanish orqali o‘quvchilarning sinfdagi faolligini va hamkorlik darajasini oshirishga erishgan. Statistik natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar o‘quvchini passiv ishtirokchidan faol ijtimoiy subyektga aylantiradi[6].

Amerikalik professor Cindy Hmelo-Silver kompyuter yordamidagi hamkorlikli o‘qitish (CSCL) orqali o‘quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishni asoslagan. U ta’lim jarayonida o‘zaro fikr almashish, muloqot va vazifa bo‘yicha taqsimlangan faoliyat ijtimoiy ko‘nikmalarni faollashtiradi, deb hisoblaydi[4].

Singapurlik pedagog Joyce Koh esa o‘qituvchilarning texnologik, pedagogik va fan bo‘yicha bilimlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’lim

samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi TPACK modelini ishlab chiqqan. Ushbu model yordamida o'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni ijtimoiy ongni shakllantirish yo'lida strategik vosita sifatida qo'llay oladi[5].

Mazkur maqola metodologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslangan:

1. Nazariy tahlil – Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy ongga ta'siri nazariy jihatdan o'rganiladi.

2. Empirik yondashuv – Awedh va O'zbekistonlik doktorantlarning tajribalari asosida, real ta'lim muhitida olib borilgan amaliy tadqiqotlar tahlil qilinadi.

3. Modellashtirish – TPACK modeliga tayanib, innovatsion texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish uchun ilmiy asos ishlab chiqiladi.

4. Kollaborativ o'rganish asoslari – Hmelo-Silver taqdim etgan CSCL tamoyillari asosida o'quvchilarning ijtimoiy muloqotini kuchaytirish metodikasi aniqlanadi.

Ushbu metodologik yondashuv mavzuni kompleks yoritishga, ilmiy asoslashga va amaliy yechimlar taklif qilishga xizmat qiladi[7, 8, 9, 10].

NATIJALAR

O'tkazilgan adabiy tahlil va metodologik izlanishlar natijasida innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirishdagi roli quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo'ldi:

Birinchidan, raqamli vositalar va virtual ta'lim muhitlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, shaxsiy qaror qabul qilishi hamda tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Farg'ona davlat universiteti olimlari — B. Shermuhammadov va O. Raxmatovlarning ta'lim muhitidagi raqamli vositalar orqali informatsion madaniyatni shakllantirish haqidagi fikrlari bu xulosani mustahkamladi. Ular axborotni tanqidiy tahlil qilish, fikr bildirish va ijtimoiy

munosabatlarga ongli yondashish kabi ko'nikmalar raqamli ta'lim orqali samarali rivojlanishini ta'kidlaydilar.

Ikkinchidan, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlarning qo'llanilishi orqali o'quvchilar o'z ijtimoiy pozitsiyasini aniqlay boshlaydi. B. Mo'llayev ta'lim jarayonida individual yondashuv va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi orqali o'quvchilarni ijtimoiy muhitda faol ishtirokchi sifatida shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslagan.

Uchinchidan, zamonaviy interfaol platformalarning sinfda qo'llanilishi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytiradi. Mohammad Awedh tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Socrative platformasi o'quvchilarning muloqotga kirishish, jamoaviy ishlash va bir-birini tinglash kabi ijtimoiy kompetensiyalarini oshirganini amalda ko'rsatdi.

To'rtinchidan, CSCL yondashuvini ishlab chiqqan C. Hmelo-Silverning fikriga ko'ra, kompyuter yordamida tashkil etilgan hamkorlikli ta'lim modeli o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ijtimoiy ongini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim mazmunini birgalikda muhokama qilish, qarama-qarshi fikrlar bilan ishlash va yechim topishga harakat qilish orqali o'quvchilar ijtimoiy ongli subyektlarga aylanadi.

Beshinchidan, Joyce Koh ishlab chiqqan TPACK modeli asosida o'qituvchilarning texnologik savodxonligi va pedagogik kompetensiyasi oshgan sari, ular o'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologik metodlardan samarali foydalanishni boshlaydi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni to'g'ri tanlash va pedagogik maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali o'quvchilarda ongli ijtimoiy pozitsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va fuqarolik mas'uliyati kabi sifatlarni shakllantirish mumkin. Shuningdek, texnologiyalar vositasida yaratilgan individual va moslashuvchan o'quv muhiti ijtimoiy ongni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

MUHOKAMA

Zamonaviy jamiyatning dinamik rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangicha vazifalarni qo'yadi. Endilikda o'quvchidan faqat an'anaviy bilimlarni egallashi emas, balki ijtimoiy jihatdan faol, tanqidiy fikrlaydigan, mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanishi talab etilmoqda. Ushbu maqsadga erishishda innovatsion ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, raqamli platformalar, interaktiv muhitlar va shaxsga yo'naltirilgan metodlar o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol subyektga aylantiradi. Farg'ona Davlat Universiteti olimlari — B. Shermuhammadov va O. Raxmatov texnologiyalarning axborotni anglab yetish va ongli fikr bildirishdagi roli haqida asosli fikrlar bildirgan. Bu texnologiyalar orqali o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalar bilan muloqot qilish, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan o'z pozitsiyasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muallif sifatida shuni ta'kidlash joizki, nazariy bilim va amaliy kuzatuvlarim asosida innovatsion vositalarning ijtimoiy ongga bevosita ta'siri yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Masalan, sinfda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga jamoaviy topshiriqlar berilishi, raqamli taqdimotlar tayyorlashga yo'naltirilgan ishlar orqali ularning ijtimoiy mas'uliyat hissi, hamkorlik madaniyati shakllanadi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, ilhomlantiruvchi va ong shakllantiruvchi shaxs sifatida qatnashadi.

Xalqaro olimlar, jumladan C. Hmelo-Silver (CSCL modeli) va Joyce Koh (TPACK modeli) tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar esa texnologiyalarni faqat vosita emas, balki ijtimoiy ong tarbiyachisi sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda. Ularning yondashuvlari, ta'limga integratsiyalashuvi o'qituvchilarning kasbiy mahorati bilan chambarchas bog'liq.

Shu asosda aytish mumkinki, texnologiyalarni maqsadli, strategik yondashuv bilan qo'llash — o'quvchilarda ongli, mas'uliyatli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy ta'limning kuchli tayanchi bo'la oladi[11].

XULOSA

Innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biridir. O'tkazilgan tahlillar, adabiyotlar sharhi va ilmiy manbalarga tayangan holda aniqlanishicha, bugungi ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni faqat axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchli pedagogik instrument sifatida qo'llash zarurati tug'ilmoqda.

Farg'ona Davlat Universiteti olimlari — Shermuhammadov va Raxmatov ta'kidlaganidek, raqamli axborot muhitida ta'lim sifati axborotni tanqidiy tahlil qilish va ongli qaror qabul qilish qobiliyatiga bog'liq. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari tarafdori B. Mo'llayev esa individual yondashuv orqali o'quvchilarda ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish mumkinligini ilmiy asoslagan. Xalqaro miqyosda esa C. Hmelo-Silverning CSCL modeli va Joyce Kohning TPACK konsepsiyasi orqali o'qituvchilarning texnologik-pedagogik bilimlari o'quvchilarda ongli va tanqidiy ijtimoiy fikrni rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida ko'rilmoqda.

Muallif sifatida ushbu mavzuni tanlashim bejiz emas. Ta'lim sohasi mutaxassisi sifatida ta'lim tizimimizda ko'plab innovatsion usullar qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ularning aksariyati ijtimoiy ongga ta'sir qilish darajasida chuqur o'rganilmaganini sezdim. Shu bois, bu yo'nalishda nazariy va amaliy asoslarni sintez qilish, xalqaro va milliy tajribalarni birlashtirish, o'zbek ta'lim muhitiga moslashtirish zarur deb hisoblayman. Bu maqola orqali shu ehtiyojga ilmiy javob berishga harakat qilindi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda jamiyatga nisbatan befarqlik, ijtimoiy sustlik, mas'uliyatsizlik holatlari saqlanib qolmoqda. Buning oldini olish uchun dars jarayonini ijtimoiy-axloqiy mazmun bilan boyitish,

hamkorlikda o'rganish, tanqidiy fikrlashga undovchi texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Aynan innovatsion texnologiyalar bu ehtiyojni qondira oladi.

Bundan kelib chiqadiki, o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirish — bu faqat ta'lim sifati masalasi emas, balki jamiyat barqarorligining poydevoridir. Agarda ta'lim mazmuni texnologiyalar orqali ijtimoiy ong bilan boyitilmasa, biz faqat bilimdon, ammo jamiyatda o'z o'rnini anglamaydigan avlodni tarbiyalash xavfiga duch kelamiz.

Shu sababli, mazkur maqolada ilgari surilgan nazariy asoslar, metodologik yondashuvlar va empirik xulosalar asosida, o'qituvchilarga yangi yondashuvlar taklif etildi. Texnologiyalarni faqat vosita sifatida emas, balki shaxsiyatni shakllantiruvchi kuchli omil sifatida talqin qilish orqali biz ta'limda sifat, maqsad va mazmun birligini ta'minlashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Shermuhammadov B., Raxmatov O. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. — Farg'ona: FDU Ilmiy axborotlari, 2023. — №1. — B. 22–29.
2. Mo'llayev B. M. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va uning innovatsion asoslari. // O'zbekistonda pedagogik tadqiqotlar jurnali. — 2022. — №4. — B. 41–48.
3. Axmedov A., Sherqo'ziyeva Z. Raqamli ta'lim muhiti va o'quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirish. — Farg'ona: Yosh olimlar izlanishlari to'plami, 2023. — B. 110–116.
4. Hmelo-Silver C. E. Collaborative problem solving: Models, methods, and outcomes // Educational Psychologist. — 2013. — Vol. 48(1). — P. 25–34.

5. Koh J. H. L., Chai C. S., Tsai C.-C. Examining the technological pedagogical content knowledge of Singapore pre-service teachers // *Australasian Journal of Educational Technology*. — 2010. — Vol. 26(3). — P. 377–387.
6. Awedh M., Mueen A., Zafar B. Enhancing students' performance and engagement through interactive platforms: A case study using Socrative // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*. — 2015. — Vol. 176. — P. 551–558.
7. Hasanov A. Ijtimoiy ong tushunchasining pedagogik talqini // *Ta'lim va innovatsiya ilmiy-amaliy jurnali*. — 2022. — №3(19). — B. 73–79.
8. Yo'ldoshev S. R. O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy metodlarning roli. — Toshkent: TDPU ilmiy axborotnomasi, 2021. — №2. — B. 92–98.
9. Bahronova M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ijtimoiy ongga ta'siri. // *Pedagogik izlanishlar jurnali*. — 2023. — №5. — B. 65–70.
10. Qodirova N. O'quvchilarning ijtimoiy ongini shakllantirishda darsdan tashqari faoliyatlarning o'rni. // *Ilm va taraqqiyot*. — 2021. — №4. — B. 37–42.
11. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar. — Toshkent: O'qituvchi, 2020. — 56 b.